

Eshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
«Geografiya o'qitish metodikasi» kafedrasida dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING RIVOJLANISHI VA HUDUDIIY TASHKIL ETILISHI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tarkibi tahlil qilingan. Shuningdek, tarmoqning YaIM tarkibidagi ulushi, agrar sohaga kiritilayotgan investitsiya hajmi va moliyalashtirish manbalari o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy sub'ektlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan hamda xulosa va tavsiyalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, hudud, mintaq, qishloq xo'jaligi ekin yerlari, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish, indeks, ixtisoslashuv, tabiiy va iqtisodiy omillar.

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu ijobiy o'zgarishlar nafaqat tarmoqlarda balki, hududlarda ham namoyon bo'lmoqda. Jahonda bo'lganidek, respublikamizda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlatimizning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada Prezidentimiz "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan bo'lib qoladi"¹ deb ta'kidlab o'tgandi.

Darhaqiqat aholini barqaror va sifatli kundalik oziq-ovqat, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni yumshatishda mintaqalarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tarkibini takomillashtirish lozim.

Ushbu muammolarni tizimli kamaytirib borish maqsadida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish maqsadi qo'yilgan².

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kundagi qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi mavjud imkoniyatlardan ancha past. Bizning o'rganishlarimiz bo'yicha buning asosiy sabablaridan biri mintaqalardagi qishloq xo'jaligi salohiyatlaridan foydalanishdagi kamchiliklar hisoblanadi. Shu bois mazkur ilmiy ish O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tarkibini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va ixtisoslashtirishni nazariy va uslubiy asoslari MDH mamlakatlarida N.V.Vasil'ev, A.N.Rakitnikov, V.G.Kryuchkov, K.I.Ivanov, K.P.Obolenskiy, N.YO.Kovalenko, N.A.Bannikov, A.M. Nosonov, A.I.Altuxov, I.V.Taranova va boshqa ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan.

Respublikamizda ushbu muammoning nazariy va uslubiy tomonlari K.I.Lapkin, Z.M.Akramov, K.N.Abirqulov, X.Raxmanqulov, A. Ro'ziev, SH.Akmalxanov, A.M.Sodiqov, YU.I. Ahmadaliev, K.N.Bedrintsev, K.I.Gadoev, A.A.Xalimirzaev, K.E.Xidiraliev, S.A.Avezov, M.A.Fayzullaev, K.F.Qo'ziev va boshqalar ilmiy ishlarida yoritilgan.

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз: Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.//Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

² 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январидagi №60-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

Mintaqada qishloq xo'jaligini tarkibini takomillashtirish, rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha J.Medetullaev, K.Rzaev, E.Umarov, K.Ubaydullaev, K.Bektemirov, J.Sauxanov, A.Matchanova va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Mazkur katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik tadqiqot natijalarini inkor etmagan holda, keyingi (2016 yildan hozirgacha) yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligining hududiy tarkibi kompleks tahlil qilingan ishlar kam. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston qishloq xo'jaligini hudud-tarmoq tarkibini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, aksariyat ishlar avvalgi rejali iqtisodiyot tizimi va o'tish iqtisodiyoti doirasida bajarilgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Maqolaning metodologik asosini qishloq xo'jaligining hududiy tarkibini tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot usullaridan, qishloq xo'jaligi va unga tutash fanlarda yaratilgan ilmiy g'oya va qonuniyatlar o'rin olgan. Maqolani yozishda tarmoq-hudud, taqqoslash usullaridan foydalanilib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlanishi va hududiy tarkibini ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan Qonun va qarorlar, respublika hukumati tomonidan olg'a surilgan takliflar va qishloq xo'jaligi ustuvor vazifalaridan kelib chiqqanligi bilan tavsiflanadi.

Tahlil va natijalar

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim va qadimgi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan uzviy bog'liq. Mamlakatning qulay tabiiy sharoiti va uning asosida aholining shakllangan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati hamda mehnat ko'nikmasi tufayli O'zbekistonda paxtachilik, g'allachilik, polizchilik, sabzavotchilik, pillachilik, bog'dorchilik, qoramolchilik, qorako'lchilik va boshqa tarmoqlar rivojlanmoqda.

Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 25,1¹ (2022-yil) foizi to'g'ri keladi. Respublika aholisining 49,0 foizi qishloq joylarida istiqomat qilishi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlarning 25,0 foizi (3429,6 ming kishi)² qishloq xo'jaligiga to'g'ri kelishi, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzviy bog'liqligi mazkur tarmoq respublika xalq xo'jaligidagi ahamiyatining kattaligidan dalolat beradi.

Mazkur tarmoqni rivojlantirish maqsadlarida hukumat tomonidan dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga jalb qilinmoqda. Jumladan, ushbu dasturlar doirasida agrar sohaga 2022-yil davomida 15703,6 mlrd. so'm miqdorda investitsiyalar kiritilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yili 12199,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Jami kiritilgan investitsiyalarning 32,3 foizi xorijiy investitsiya va kreditlar, 9,1 foizi respublika byudjeti, 22,0 foizi korxona va tashkilotlar mablag'lari, 14,1 foizi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari va 22,5 foizi boshqa moliyalashtirish manbalari ulushiga to'g'ri kelgan (1-diagramma).



1-Diagramma. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalar³

Diagramma O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2019-2022 yillar statistik to'plam ma'lumotlari asosida tuzilgan. T.: 2023. 17 b.

¹ O'rmon va baliqchilikni qo'shgan holda.


² O'rmon va baliqchilikni qo'shgan holda. Qishloq xo'jaligi ulushiga iqtisodiyotda band bo'lganlar dinamikasi tahliliga ko'ra kamayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2020 yil 26,4, 2021 yil 25,2 foizni tashkil etgan.

³ 1-respublika byudjeti, 2-korxona va tashkilotlar mablag'lari, 3-tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, 4-xorijiy investitsiya va kreditlar, 5-boshqa moliyalashtirish manbalari.

So‘nggi yillarda respublikamizda iqtisodiyotni sanoatlashtirish dasturini amalga oshirish natijasida qishloq xo‘jaligining nisbiy ko‘rsatkichlari, ya‘ni ulushi pasayib borish tendensiyasiga ega¹. Shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyoti agrar-industrial shakldan tobora, asta-sekin industrial-agrar yo‘nalish kasb etmoqda². Bu jarayon sanoatning tez sur‘atlarda rivojlanishi natijasida yuz bermoqda. Albatta respublikada agrar soha mahsulotlarini yetishtirish ham o‘sib borgan (2-diagramma). Lekin o‘shir sur‘atlari keyingi 8 yilda iqtisodiyotning boshqa real tarmoqlaridan past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.

Mazkur jarayon YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining kamayishiga olib kelgan. Vaholanki, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 30,1 foizni tashkil etgan.

Respublikamiz ma‘muriy-hududiy birliklari YaIMda qishloq xo‘jaligi ulushi



2-Diagramma. Iqtisodiyot tarmoqlarida mahsuloti ishlab chiqarishning o‘shir sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan foizda)

turlicha xususiyatga ega. Jumladan, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Keltirilgan tahlilga asosanib xulosa qilish mumkinki, ko‘pchilik mintaqalarda agrosanoat komplekslari to‘liq siklga ega bo‘lmaganligi, boshqacha aytganda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tayyor mahsulot holatiga keltirilmayotganligi bilan xarakterlanadi. Mamlakat hududiy mehnat taqsimotida ma‘muriy-hududlar asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan qatnashmoqda (1-jadval). Navoiy, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘iston ushbu jarayondan mustasno.

O‘zbekiston tabiiy va iqtisodiy omillarga ko‘ra qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilik, adir-tog‘ va cho‘l-yaylov mintaqalariga bo‘linadi³.

Sug‘orma dehqonchilik Farg‘ona, Zarafshon vodiylari, Chirchiq-Ohangaron, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylarining sug‘oriladigan, Mirzacho‘l rayonining obikor, Amudaryo bo‘yi, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining tog‘ oldi hududlarida olib boriladi.

Hozirgi kunda respublikada sug‘oriladigan maydonlar 3693,6 ming gektar yoki qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 17,4 foizini egallaydi. Sug‘oriladigan maydonlar mamlakatimiz uchun eng qimmatli yer hisoblanib, respublika hududining qariyb 9,6 foizini tashkil etadi va yalpi

¹ Qishloq xo‘jaligining respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1990 yilda 33,4 foiz, 2000 yilda 30,1 foiz, 2013 yilda 17,6 foiz va 2022 yilda 253,5 foiz bo‘lgan.

² Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: 2014. 64 б

³ Асанов Г., Набионов И., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. Т.: Ўқитувчи. 1994. 99 б.

dehqonchilik mahsulotining asosiy qismi shu yerlardan olinadi. Bu yerlarning asosiy qismi paxtachilik va g'allachilikka ajratilgan bo'lib, respublikamizning barcha viloyatlarida paxta va g'alla yetishtiriladi. Ayni vaqtda, ushbu hududlarda aholini oziq-ovqat resurslari bilan ta'minlash maqsadida paxta-g'alla, paxta-sabzavot-beda, poliz-paxta-g'alla va boshqa ekinlarni almashlab ekish yo'lga qo'yilgan¹.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududlarining 2022-yilda yalpi hududiy mahsulot tarkibining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi, foizda

Ma'muriy-hududiy birliklar	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	Xizmatlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29,6	31,9	38,5
Andijon viloyati	41,3	29,0	29,7
Buxoro viloyati	44,7	26,2	29,1
Jizzax viloyati	51,9	18,7	29,4
Qashqadaryo viloyati	41,2	24,2	34,6
Navoiy viloyati	13,9	73,3	12,8
Namangan viloyati	40,3	22,3	37,4
Samarqand viloyati	40,5	22,1	37,4
Suxrondaryo viloyati	47,7	15,2	37,1
Sirdaryo viloyati	39,4	32,9	27,7
Toshkent viloyati	22,1	53,7	24,2
Farg'ona viloyati	35,1	26,3	38,6
Xorazm viloyati	46,0	21,3	32,7
Toshkent shahri	-	43,6	56,4

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2019-2022 yillar statistik to'plam ma'lumotlari asosida tuzilgan. T.: 2023. 15 b.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismini yetishtiradigan ekin yerlar maydonlari ushbu mintaqada joylashgan. Lekin ekin yerlarning geografik tarqalishi ma'muriy-hududlar o'rtasida farqlar mavjud (2-jadval).

Jumladan, respublika ekin maydonlarining 12,5 foizi Qashqadaryo, 11,6 foizi Jizzax viloyati ulushiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Toshkent viloyatlari o'rtacha mavqeyiga ega. Andijon, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlari o'rtachadan pastroq. Navoiy viloyati eng kam ulushga ega². Bu jarayon albatta viloyatlarning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, rel'efi va boshqa omillarga bog'liq.

Adir-tog' mintaqasi respublika hududining 1/5 qismidan ortiqrog'ini ishg'ol qilib, bahorikor (lalmikor) g'allachilik, meyvachilik, uzumchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Respublika bo'yicha lalmikor yer maydonlari 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 786,4 ming gektarni tashkil qiladi³.

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.-Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2006. 12-жилд. 278-303 бетлар.

² Vaholanli, O'zbekiston hududining 10,8 foizi Qashqadaryo, 4,7 foizi Jizzax, 3,7 foizi Samarqand, 3,5 foizi Toshkent, 1,0 foizi Andijon, 9,0 foizi Buxoro, 1,7 foizi Namangan, 4,5 foizi Surxondaryo, 0,9 foizii Sirdaryo, 1,5 foizi Farg'ona, 1,3 foizi Xorazm, 24,7 foizi Navoiy viloyatlari va 37,1 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

³ Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги кадастр агентлигининг давлат кадастрлари палатаси. Ўзбекистон Республикасининг ер фонди. Т.: 2023. 17 б.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy birliklarida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va yetishtirilgan mahsulotlarning taqsimlanishi, 2022-yil bo‘yicha

Ma’muriy-hududlar	Q/x ekinlari ekilgan maydoni, ming ga	Q/x ekinlari ekilgan maydonida ulushi, foizda	Q/x yetishtirilgan mahsulotlar, mlrd. so‘m	Q/x yetishtirilgan mahsulotlardagi ulushi, foizda	Indeks
O‘zbekiston Respublikasi	3353,3	100	345191,7	100	1,00
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	283,1	8,4	13348,2	3,9	0,46
viloyatlar:	-	-	-	-	
Andijon	205,6	6,1	35587,4	10,3	1,68
Buxoro	240,0	7,2	32867,5	9,5	1,31
Jizzax	388,7	11,6	23239,2	6,7	0,57
Qashqadaryo	418,5	12,5	32240,7	9,3	0,74
Navoiy	88,6	2,6	15151,7	4,4	1,69
Namangan	183,7	5,5	25157,7	7,3	1,32
Samarqand	330,9	9,9	40428,1	11,7	1,18
Surxondaryo	249,2	7,4	26755,7	7,8	1,05
Sirdaryo	214,8	6,4	11523,3	3,3	0,51
Toshkent	296,2	8,8	33010,7	9,6	1,09
Farg‘ona	247,2	7,4	32737,0	9,5	1,28
Xorazm	206,8	6,2	23144,5	6,7	1,08

Jadval O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019-2022 yillar statistik to‘plam ma’lumotlari asosida tuzilgan T.: 2023.

Lalmikor yerlar maydoni Jizzax (244,2 ming ga), Qashqadaryo (258,1 ming ga), Navoiy (31,1 ming ga), Samarqand (180,8 ming ga), Surxondaryo (39,5 ming ga) va Toshkent (32,7) viloyatlarida joylashgan¹.

Cho‘l-yaylov mintaqasi respublika hududining 3/5 qismini ishg‘ol qilib, oqar suvsiz tekisliklardan iborat. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. Respublikada 21114,3 ming gektar tabiiy yaylovlar mavjud. Tabiiy sharoitlariga qarab yaylovlar cho‘l-tekislik (cho‘l mintaqasi), tekislik-tepalik (adir mintaqasi) va tog‘ oldi, tog‘ (tog‘ mintaqasi) larga bo‘linadi. U chorvachilik, asosan qorako‘lchilikka ixtisoslashgan. Yaylovlar hamma mintaqalarda mavjud bo‘lib, asosiy qismi Navoiy (42,1 foiz), Buxoro (12,1 foizi) Qashqadaryo (6,7 foiz) viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (24,6 foiz) joylashgan².

Sobiq Ittifoq davrida respublika qishloq xo‘jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan, markaziy hududlar sanoatini xomashyo bilan ta’minlovchi monokultura ko‘rinishidagi rayon edi. Mustaqillikka erishgach bu sohada tub islohotlar o‘tkazildi, qishloq xo‘jaligi deyarli to‘liq nodavlat sektoriga o‘tkazildi, fermer va dehqon xo‘jaliklari tashkil etildi³.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 100 mingdan ortiq fermer, 4,5 mln. ortiq dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmoqda. Tarmoqda yetishtirilgan jami mahsulotlarning 93,2 foizi aynan fermer (31,4 foiz), dehqon va tomorqa (61,7 foiz) xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri kelgan. Respublikadagi 84,6 foiz ekin maydonlar mazkur xo‘jaliklarga ajratilgan. Shundan 71,0 foizini fermer, 13,7 foizini dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan (3-jadval).

¹ O‘sha joyda.

² Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги кадастр агентлигининг давлат кадастрлари палатаси. Ўзбекистон Республикасининг ер фонди. Т.: 2023. 20 б.

³ Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: 2014. 64. б.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dehqon va tomorqa xo'jaliklari egallagan ekin maydonlari kam bo'lishiga qaramasdan, respublika dalalarida yetishtirilgan kartoshka, sabzavotlar, meva va rezavorlar, uzum va chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirib bermoqda. Fermer xo'jaliklarida asosiy e'tibor paxta va donli ekinlar ayniqsa, bug'doy yetishtirishga qaratilmoqda.

3-jadval

2022-yilda qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ekin maydonlari va mahsulot yetishtirishdagi ko'rsatkichlari

	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		Fermer xo'jaliklari		Dehqon xo'jaliklari	
	Ko'rsatkichlar	Ulushi, foizda	Ko'rsatkichlar	Ulushi, foizda	Ko'rsatkichlar	Ulushi, foizda
Jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mlrd. so'm	23741,5	6,9	108584,1	31,4	212866,1	61,7
Ekin maydonlar, ming ga.	514,7	15,3	2380,5	71,0	458,1	13,7
Shu jumladan: donli ekinlar	229,2	14,6	1196,1	76,3	142,0	9,1
Paxta	227,9	21,7	820,6	78,3	-	
Kartoshka	4,1	3,7	24,6	22,2	82,1	74,1
Sabzavotlar	11,2	4,6	60,6	25,2	168,8	70,2
Oziqbop poliz	6,2	8,6	37,4	52,1	28,2	39,3
Ozuqa ekinlar	29,6	11,4	196,8	76,2	32,0	12,4
Yirik shoxli qoramollar, ming bosh	246,3	1,8	962,3	6,9	12644,9	91,3
Qo'y va echkilar, ming bosh	1636,3	6,9	3544,0	15,0	18422,2	78,1
Parrandalar, ming bosh	31412,8	32,3	16373,5	16,8	49565,2	50,9
Mahsulotlar yetishtirish, ming t.						
Don va dukkakli don	914,4	11,4	6344,6	79,4	731,5	9,2
Paxta	961,4	27,5	2539,3	72,5	-	
Kartoshka	73,2	2,1	908,2	26,4	2461,8	71,5
Sabzavotlar	380,3	3,4	4040,5	36,2	6742,1	60,4
Oziqbop poliz	110,1	4,5	1312,7	54,2	997,9	41,2
Meva va rezavorlar	106,5	3,6	1336,5	44,5	1556,2	51,9
Uzum	48,3	2,7	796,9	45,3	915,4	52,0
Pilla	9,8	40,3	14,5	59,7	-	-
Go'sht (tirik vaznda)	195,6	7,2	170,2	6,2	2360,1	86,6
Sut	135,6	1,2	629,6	5,4	10862,0	93,4
Tuxum, mln. Dona	2125,0	26,1	1198,3	14,8	4805,9	59,1

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2019-2022 yillar statistik to'plam ma'lumotlari asosida tuzilgan. T.: 2023. 53-58-betlar.

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish bozor munosabatlari asosida tashkil etilishi natijasida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari shakllantirilib borildi. Shunga qaramasdan, O'zbekiston qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, paxtachilik va

g'allachilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lib qolmoqda (4-jadval). Paxta to'qimachilik sanoati uchun xomashyo va

4-jadval

Jami ekin maydonlar tarkibi (barcha toifadagi xo'jaliklar, foizda)

Ekin turlari	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Jami ekin maydoni	100	100	100	100	100	100	100	100
Donli ekinlari	45,2	45,6	47,6	48,4	47,7	48,5	47,8	46,8
shu jumladan: boshqoli don	41,7	41,8	43,5	44,0	42,6	43,3	42,2	41,4
shundan bug'doy	39,1	39,0	40,6	40,8	39,8	40,0	39,3	38,3
makka jo'xori don uchun	1,0	1,1	1,1	1,2	1,3	1,5	2,0	1,9
Sholi	1,9	2,0	2,1	1,4	2,1	1,9	1,6	1,5
dukkakli don	0,5	0,6	0,8	1,7	1,5	1,6	1,8	1,7
Texnik ekinlar	37,0	36,0	36,1	33,9	33,2	32,9	32,5	32,9
shu jumladan: g'o'za maydonlar	35,1	34,1	34,6	32,6	31,7	31,3	30,8	31,3
Kartoshka	2,2	2,3	2,3	2,6	2,7	2,7	3,0	3,3
Sabzavotlar	5,3	5,5	5,5	6,4	6,6	6,6	7,0	7,2
Oziqbop poliz	1,4	1,6	1,5	1,5	1,6	1,8	2,0	2,1
Ozuqa ekinlari	8,9	9,0	7,0	7,1	8,1	7,5	7,7	7,7

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019. 25 bet) va 2019-2022 statistik to'plamlari (T.: 2023. 25-26 betlar) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

muhim eksport mahsuloti, bug'doy mamlakat uchun oziq-ovqat xavfsizligining asosi hisoblanadi¹.

O'zbekiston dunyodagi sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilikning eng qadimiy mintaqalaridan biri hisoblanadi. **Dehqonchilik** respublika qishloq xo'jaligining muhim tarmog'idan biri. Uning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi ulushi, iqlim sharoitiga bog'liq holda o'zgarib turadi va keyingi yillarda 50 foizdan kam bo'lmagan.

Paxtachilik. O'zbekistonda issiq kunlarning davomiyligi, ekin yerlarning unumdorligi va aholining asrlar davomida to'plagan tajribasi paxtachilikning serdaromad tarmoq bo'lishiga zamin yaratgan. Mamlakatimiz jahon paxtachilik nuqtayi nazaridan eng shimoliy hudud hisoblanadi.

Respublikada paxta ekin maydonlari qisqarib, uning hosili ham kamayib borgan bo'lsada, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega. Sababi, paxtachilik iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlari bilan bog'liq bo'lib paxta sanoat majmuyi tarkib topgan². Shuningdek, aynan paxta, uning tolasi O'zbekiston eksportining asosiy mahsulotlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan respublikamiz xalqaro mehnat taqsimotida va jahon bozorida bu borada eng oldingi mamlakatlar qatoriga kiradi³. O'zbekiston jahon mamlakatlari orasida paxta tolasini yetishtirish bo'yicha Xitoy, Hindiston, AQSH, Pokiston va Braziliyadan keyin 6-o'rinda turadi⁴. Paxta tolasi eksporti bo'yicha AQSh dan keyingi 2-o'rinda turadi⁵.

Respublikamizda jami paxta ekilgan maydon 2005-yilda 1472,3, 2008-yilda 1425,1, 2015-yilda 1298,1, 2018-yilda 1108,2, 2020-yilda 1062,3 va 2022-yilda 1048,5 ming gektarni tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki, paxta maydonlari yildan-yilga qisqarib borgan (5-jadval).

¹ Пугач И., Юсупов Ю., Бердиназаров З. Сельскохозяйственная политика в производстве сельскохозяйственных культур в Узбекистане. <http://www.iamo.de>

² Асанов Г., Набионов И., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий ғўғрофияси. Т.: Ўқитувчи. 1994. 103 б.

³ Солиев А. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси). Т.: 2014. 69 б.

⁴ Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi. II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: Yangi Chirchiq prints. 2024. 100 b.

⁵ Mamajanov M. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: 2019. 152 b.

O'zbekistonda paxta yetishtirishning o'sishi

Yillar	Paxta maydoni, ming ga	O'rtacha hosildorlik ts/ga	Yalpi hosil, ming t	Paxta maydoni 1992 y.n., ming ga	O'rtacha hosildorlik 1992 y.n., ts/ga	Yalpi hosil 1992 y.n., ming t
1992	1719	26,9	4624,1	-	-	-
1993	1695,1	25,0	4235,0	-23,9	-1,9	-389,1
1995	1492,0	26,4	3934,1	-227,0	-0,5	-690,0
1998	1521,6	21,0	3206,2	-197,4	-5,9	-1417,9
2005	1472,3	-	-	-246,7	-	-
2008	1425,1	-	-	-293,9	-	-
2015	1298,1	25,9	3361,3	-420,9	-1	-1262,8
2016	1265,1	23,4	2959,0	-453,9	-3,5	-1665,1
2017	1201,2	23,6	2853,9	-517,8	-3,3	-1770,2
2018	1108,2	20,7	2293,0	-610,8	-6,2	-2331,1
2019	1050,6	25,6	2691,7	-668,4	-1,3	-1932,4
2020	1062,3	28,8	3064,0	-656,7	1,9	-1560,1
2021	1028,2	32,8	3372,9	-690,8	5,9	-1251,2
2022	1048,5	33,4	3500,7	-670,5	6,5	-1123,4

Jadval Asanov G., Nabixonov I., Saifarov I. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: Ўқитувчи. 1994. 103 б. Рўзиев А., Абирқулов Қ. Ўзбекистон иқтисодий географияси. Т.: Шарқ. 2001. 118 б. Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: 69 б. O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2019-2022. (T.: 2023) statistik to'plam ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan 2015-2022 yillar davomida umumiy ekin maydonlar tarkibida ham g'oz ekin maydonlari ulushi kamayish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin.

Mamlakatda paxta ekin maydonlarining qisqarishi sug'oriladigan yerlarda aholi uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida sabzavot, poliz, meva va rezavorlar hamda tokzorlar maydoni geografiyasining ko'payishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

5-jadval tahlillaridan ma'lumki, ekin maydonlarining qisqarishi bilan mos ravishda yalpi hosil ham kamaygan. Jumladan, o'tgan asr 90-yillarning boshlariga nisbatan 2022-yil paxta xomashyosini yetishtirish 0,7-1,1 mln tonnadan ko'proqqa kamayish kuzatilgan. Lekin shuni ta'kidlash joizki, paxtachilikni intensiv rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida uning yuqori hosildorligi ta'minlanmoqda. Chunonchi, o'tgan o'ttiz yil (1992-2022 yy) davomida hosildorlik 6,5 ts/ga oshgan.

Respublika g'oz ekin maydonlari va paxta xomashyosini yetishtirish geografiyasi bo'yicha olib borilgan tahlillardan ma'lumki, Qashqadaryo viloyati ekin maydoni va yetishtirilgan paxta xomashyosi bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Navoiy viloyati oxirgi o'rinda turadi. Paxtachilikning bu ko'rsatkichlari bo'yicha Buxoro viloyati ham yuqori ko'rsatkichlarga ega. Andijon, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari o'rtacha mavqeyini egallagan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida hosildorlik respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past hisoblanadi (6-jadval).

Donli ekinlar. Respublika donchiligi ko'p xil ekinlar turini o'z ichiga oladi. Don olish uchun bug'doy, arpa, javdar, sholi, sul makkajo'xori, jo'xori, tariq; dukkakli don ekinlari – no'xat, mosh, loviya, yeryong'oq; moyli don ekinlari – zig'ir, kunjut, soya, kungaboqar va boshqalar yetishtiriladi¹.

¹ Рўзиев А. Абирқулов Қ. Ўзбекистон иқтисодий географияси. Т.: Шарқ. 2001. 121 б.

Donli ekin maydonlari tarkibida bug‘doy asosiy o‘rinni egallaydi. Mamlakatda bug‘doy yetishtirish paxta bilan yonma-yon ekilmoqda va dehqonchilikning o‘zak sohasiga aylantirilmoqda. Jumladan, 2022-yilda jami ekin maydonlarning 38,3 foizini bug‘doy dalalari egallagan.

6-jadval

**O‘zbekistonda g‘o‘za ekin maydonlari va paxta xomashyosini yetishtirish
geografiyasi (barcha toifadagi xo‘jaliklarda, 2022 y)**

Ma‘muriy hududlar	G‘o‘za ekin maydoni ming ga	G‘o‘za ekin maydoni ulushi, foizda	Yetishtirilgan paxta xomashyosi, t	Yetishtirilgan paxta xomashyosi ulushi, foizda	Hosildorlik ts/ga	Indeks
O‘zbekiston Respublikasi	1048,5	100	3500,7	100	33,4	1,00
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	108,8	10,4	239,8	6,8	22,0	0,65
Viloyatlar						
Andijon	72,9	7,0	277,4	7,9	38,0	1,12
Buxoro	98,9	9,4	359,3	10,3	36,3	1,09
Jizzax	85,4	8,1	268,9	7,7	31,5	0,95
Qashqadaryo	131,9	12,6	426,7	12,2	32,3	0,96
Navoiy	30,3	2,9	115,1	3,3	38,0	1,13
Namangan	64,9	6,2	222,5	6,4	34,3	1,03
Samarqanda	68,7	6,5	258,1	7,4	37,6	1,13
Surxondaryo	73,2	7,0	255,2	7,3	34,9	1,04
Sirdaryo	73,9	7,0	242,6	6,9	32,8	0,98
Toshkent	72,5	7,0	254,2	7,3	35,0	1,04
Farg‘ona	79,1	7,5	285,5	8,1	36,1	1,08
Xorazm	88,0	8,4	295,4	8,4	33,6	1,00

Jadval O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019-2022 statistik to‘plam (T.: 2023. 93-152 betlar) ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, milliy iqtisodiyotni shakllantirish, xususan don (g‘alla, bug‘doy) mustaqilligiga erishishni ustuvor vazifalar sifatida oldinga surdi. Bu, o‘z navbatida, paxta yakka hokimligiga barham berish, paxta maydonlarini qisqartirish asosida bug‘doy maydonlarini kengaytirishni ham talab qildi.

Lekin keyingi sakkiz (2015-2022-yy) yil davomida bug‘doy ekin maydonlarida kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Tahlil qilinayotgan 2015-2022-yillar mobaynida bug‘doy ekin maydonlari 162,4 ming gektarga yoki 88,8 foizga, bug‘doy yalpi hosili 694,6 ming tonnaga, hosildorlik 1 ts/ga kamaygan (7-jadval).

7-jadval

O‘zbekistonda bug‘doy yetishtirish dinamikasi

	2015 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Ekin maydon, ming ga	1445,9	1386,3	1359,1	1312,9	1283,5
Hosildorlik, ts/ga	48,2	41,0	45,4	46,1	47,2
Yalpi hosil, ming tonna	6964,7	5410,8	6157,8	5984,8	6270,1

Jadval O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2015-2018 (T.: 2019. 88-131-172-betlar) va 2019-2022 yillar statistik to‘plamlari (T.: 2023. 89-148-205-betlar) ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Bug‘doy ekin maydonlari bo‘yicha 2022-yil kuchli beshlikni Qashqadaryo(209,3 ming ga), Samarqand (155,1 ming ga), Jizzax (125,0 ming ga), Toshkent (119,3 ming ga) va Surxondaryo

(104,8 ming ga) viloyatlari egallagan bo'lsa, yalpi hosil ko'rsatkichlari bo'yicha Qashqadaryo (744,1 ming t), Farg'ona (686,7 ming t), Samarqand (670,0 ming t), Surxondaryo (640,3 ming t) va Andijon (544,6 ming t) viloyatlarining mavqeyi yuqori. Hosildorlik Andijon (68,4 ts/ga), Buxoro (64,9 ts/ga), Farg'ona (59,0 ts/ga), Surxondaryo (54,0 ts/ga) Namangan (53,9 ts/ga), va Navoiy (50,1 ts/ga) viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori.

Donli ekinlar ichida ozuqabop makkajo'xori bug'doydan keyingi o'rinda (4,1 foiz) turadi. O'zbekistonda makkajo'xori asosan don va chorva mollari uchun ekiladi. Makkajo'xori respublikaning barcha viloyatlarida yetishtiriladi.

2015-2022-yillarda respublikada don uchun makkajo'xori ekin maydonlari 26,9 ming gektarga, don yetishtirish 216,8 ming tonnaga ko'paygan holda hosildorlik 15,7 ts/ga kamayganligini kuzatish mumkin (8-jadval).

8-jadval

O'zbekistonda don uchun makkajo'xori ekin maydonlari va don yetishtirish dinamikasi

	2015 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Ekin maydon, ming ga	37,3	40,8	51,9	66,5	64,2
Hosildorlik, ts/ga*	117,9	101,3	91,6	90,8	102,2
Yalpi hosil, ming tonna	439,6	413,2	475,3	590,0	656,4

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019) va 2019-2022 (T.: 2023) statistik to'plamlari ma'lumotlari asosida tuzilgan. *Hosildorlik ekilgan maydonga nisbatan chiqarilgan.

O'zbekiston donli ekinlari tarkibida sholikorlikning ham o'z o'rni bor. Lekin keyingi yillarda suv resurslarining yetishmasligi mazkur ekin turi mavqeyi nisbatan pasayishiga olib kelmoqda.

Sholi yetishtirish uchun O'zbekiston iqlim sharoiti qulay hisoblanishiga qaramay uning geografiyasi dehqonchilikning boshqa tarmoqlariga qaraganda chegaralangan. Asosan sholi Quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) mintaqasida yetishtiriladi.

Sholi ekin maydoni va sholi yetishtirish 2022-yilga kelib 2015-yilga nisbatan mos ravishda 19,1 ming gektarga, 66,6 ming tonnaga kamaygan bo'lsa, hosildorlik 9,5 ts/ga ko'paygan (9-jadval).

9-jadval

Respublikada sholi yetishtirish dinamikasining o'zgarishi

	2015 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Ekin maydon, ming ga	70,5	46,8	64,2	53,9	51,4
Hosildorlik, ts/ga*	60,4	47,2	45,7	62,0	69,9
Yalpi hosil, ming tonna	425,7	221,1	293,5	334,2	359,1

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (151-153-betlar) va 2019-2022 (25-27-betlar) yillar statistik to'plami asosida tuzilgan. * Hosildorlik sholi ekilgan maydonga nisbatan chiqarilgan.

Kartoshkachilik, sabzavotchilik va polizchilik. Respublikamiz tabiiy iqlim sharoiti pomidor, bodring, sabzi, piyoz, baqlajon, sholg'om, kartoshka, oshqovoq, qovun va tarvuzni yetishtirishga qulay hisoblanadi.

Yuqoridagi ekin turlari nafaqat barcha viloyatlar yoki tumanlarda balki, har bir qishloq, ovullarda ekiladi. Bu albatda tabiiy sharoit va aholining tarixan shakllangan dehqonchilik madaniyati asosida taraqqiyot topgan. Bundan tashqari mazkur dehqonchilik turlarining rivojlanishiga ichki va tashqi bozorlarda talabning yuqoriligi bilan ham izohlanadi.

Tahlil qilinayotgan yillar (2015-2022 yy.) davomida kartoshka, sabzavot va poliz ekin maydonlari mos ravishda 30,3, 46,5, 19,8 ming gektarga, mahsulot yetishtirish esa 856,4, 1772,9, 567,1 ming tonnaga ko'paygan. Hosildorlik barcha tarmoqlarda kamayganligi kuzatiladi.

Kartoshkachilik xususan Samarqand viloyatida yoxshi rivojlangan. Bu yerda respublikada ekilgan kartoshka maydonlarining salkam 17 foizi joylashgan (18,8 ming ga). 10,8-11,8 ming gektardan Surxondaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida, eng oz raqam, ya'ni 2,7-3,0 ming ga Sirdaryo va Navoiy viloyatlariga tegishli.

2022-yil respublika viloyatlarida kartoshka yetishtirish quyidagicha bo'lgan: Samarqand-692,6 ming t., hosildorlik 242,3 ts/ga; Andijon-420,5, 221,8; Toshkent

10-jadval

Kartoshkachilik, sabzavotchilik va polizchilikning rivojlanish tendensiyasi

	2015 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Kartoshkachilik					
Ekin maydon, ming ga	80,6	86,8	93,3	98,7	110,9
Hosildorlik, ts/ga	219,1	224,8	213,4	201,7	203,4
Yalpi hosil, ming tonna	2586,8	2911,9	3143,8	3285,6	3443,2
Sabzavotchilik					
Ekin maydon, ming ga	194,0	219,0	222,8	233,7	240,5
Hosildorlik, ts/ga	271,0	237,1	234,4	236,0	238,1
Yalpi hosil, ming tonna	9390,0	9760,3	10431,4	10850,2	11162,9
Polizchilik					
Ekin maydon, ming ga	52,0	52,6	61,1	67,4	71,8
Hosildorlik, ts/ga	203,6	189,8	168,3	176,2	170,2
Yalpi hosil, ming tonna	1853,6	1837,0	2134,2	2285,3	2420,7

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019) va 2019-2022 (T.: 2023) statistik to'plamlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

-373,4 191,6; Farg'ona-358,0, 183,3; Surxondaryo-350,5, 232,8; Namangan-322,9, 205,0 ts/ga; Qashqadaryo-185,8, 214,0; va Navoiy-84,1 ming t hosildorlik 248,3 ts/ga. Mazkur viloyatlarda hosildorlik respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Kartoshka yalpi hosilining eng past ko'rsatkichi Sirdaryo viloyatiga (66,4 ming t.), hosildorlik bo'yicha (117,5 ts/ga) Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri kelgan.

Sabzavot ekin maydonlari bo'yicha Samarqand (36,4 ming ga), Farg'ona (26,2 ming ga), Toshkent (24,8 ming ga), Andijon (21,7 ming ga) va Buxoro (21,3 ming ga) viloyatlari yetakchilik qiladi va faqatgina ularning hissasiga respublikada sabzavot bilan band bo'lgan ekin yerlarning 54,2 foizi to'g'ri keladi. Bu bejiz emas, albatta. Sababi – ayni shu mintaqalarda yirik shaharlar, urbanizatsiya yuqori darajada rivojlangan.

Yalpi hosil bo'yicha ko'rsatkichlar birmuncha o'ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, Andijon viloyatida 1730,6 ming tonna, Samarqand viloyatida 1533,7, Farg'ona viloyatida 1249,9, Surxondaryo viloyatida 1145,6 va Toshkent viloyatida 1102,5 ming tonna sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. Hosildorlik darajasi viloyatlar o'rtasida keskin farq qiladi. Masalan, Andijon (275,0 ts/ga), Namangan (272,6 ts/ga) Surxondaryo (268,1 ts/ga) va Xorazm (261,8 ts/ga), Buxoro (243,4 ts/ga) va Qashqadaryo (238,3 ts/ga) viloyatlari respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori. Hosildorlikning eng past ko'rsatkichi Qoraqalpog'iston Respublikasiga (160,6 ts/ga) to'g'ri keladi.

Poliz ekin maydonlari va mahsulot yetishtirish geografiyasiga nazar tashlansa shuni kuzatish mumkinki, poliz ekin maydonlari Jizzax viloyati (17,5 ming ga) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (12,6 ming ga) yetakchilik qilishadi¹. Yalpi hosil bo'yicha Surxondaryo (329,1 ming t.), Jizzax (286,3 ming t.), Sirdaryo (278,9 ming t.) va Andijon (208,2 ming t) viloyatlari ajralib turadi². Hosildorlik Buxoro (235,6 ts/ga), Qashqadaryo (228,8 ts/ga), Surxondaryo (224,6 ts/ga), Xorazm (219,8 ts/ga), Andijon (211,4 ts/ga), Sirdaryo (209,9 ts/ga), Samarqand (200,6 ts/ga) va Navoiy (199,2 ts/ga) viloyatlarida respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.

Bog'dorchilik va uzumchilik. O'zbekiston agroiklim sharoiti bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirishga juda qulay hisoblanadi. Termik resurslarning ko'pligi har qanday sershira meva va uzumlarni yetishtirishga imkon beradi. Shu sababdan respublikada qadimdan olma, o'rik, olcha, gilos, anor, anjir, behi, nok, olxo'ri, xurmo, subtropik va sitrus mevalar (limon, apelsin, mandarin), turli navdagi uzumlar yetishtiriladi.

¹ Boshqa ma'muriy-hududiy birliklarda poliz ekin maydonlari 1,7 ming gektardan 6,8 ming gektargacha tebranadi.

² Boshqa ma'muriy-hududiy birliklarda yalpi hosil 200 ming tonnaga etmagan.

Respublikaning barcha ma'muriy-hududlarida meva va uzum yetishtiriladi. O'zbekistonda jami meva va rezavorlar bilan 351,8 ming gektar yer banddir. Bu ko'rsatkich 2015 yilda 226,4 ming gektar bo'lgan. Shu yillarda 125,4 ming gektarga yoki 155,4 foizga ko'paygan (11-jadval).

Bog'larning asosiy qismi Farg'onada (15,9 foiz), Surxondaryo (14,9 foiz), Samarqand (12,3 foiz), Toshkent (9,9 foiz), Andijon (9,1 foiz) va Namangan (9,0 foiz) viloyatlarida joylashgan. Ayni vaqtda boshqa ma'muriy-hududlarda bog'lar maydoni kamtarroq hisoblanadi.

Yalpi hosil 2022-yil 2999,3 ming tonna bo'lgan holda, u 2015-yilga nisbatan 531,4 ming tonnaga ko'paygan bo'lsa, hosildorlik 38,3 ts/ga kamaygan.

11-jadval

Bog'dorchilik va uzumchilikning rivojlanish tendensiyasi

	2015 y.	2018 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
Meva va rezavorlar					
Ekin maydon, ming ga	226,4	319,2	336,3	342,5	351,8
Hosildorlik, ts/ga	128,1	121,6	116,7	122,1	116,4
Yalpi hosil, ming tonna	2467,9	2706,2	2812,6	2852,6	2999,3
Uzumchilik					
Ekin maydon, ming ga	128,3	113,3	128,2	133,7	136,8
Hosildorlik, ts/ga	133,1	157,5	152,0	154,7	155,3
Yalpi hosil, ming tonna	1518,2	1589,8	1606,9	1695,3	1760,6

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019) va 2019-2022 (T.: 2023) yillar statistik to'plamlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mazkur yillarda meva va rezavorlar yetishtirish ekstensiv rivojlanish xususiyat kasb etgan.

Mahsulot yetishtirish geografiyasiga nazar tashlasak meva va rezavorlarning asosiy qismi Andijon (22,5 foiz), Farg'ona (13,0 foiz), Samarqand (12,0 foiz) va Namangan (11,5 foiz) viloyatlarida yetishtirilgan. Yuqoridagi keltirilgan mintaqalarga respublikada yetishtirilgan meva va rezavorlarning 59,0 foizi to'g'ri kelgan.

O'zbekiston bo'yicha jami tokzorlar – 136,8 ming ga. Bu xususda Samarqand viloyati keskin ajralib turadi – 48,5 ming gektar yoki respublika uzumzorlarining 35,4 foizi shu yerda joylashgan. Keyingi o'rinlarda Toshkent (16,2 ming ga, 11,8 foiz), Surxondaryo (11,3 ming ga, 8,3 foiz) va Qashqadaryo (10,1 ming ga, 7,4 foiz) viloyatlari egallaydi. Eng kam tokzorlar Qoraqalpog'iston va Sirdaryoda; bu mintaqalarda ularning maydonlari 1,8 va 1,4 ming gektarga teng.

Uzumning yalpi hosili O'zbekiston bo'yicha 1760,6 ming tonna, uning 618,3 ming tonnasi yoki 35,1 foizi birgina Samarqand viloyatiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik. Bu tarmoq O'zbekiston qishloq xo'jaligining dehqonchilikdan keyingi ikkinchi asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning hissasiga 2022 yil respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 48,4 foizi to'g'ri kelgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati shundaki, qadimdan dehqonchilik va chorvachilik uyg'un holda rivojlanib kelmoqda. Albatta bu respublika hududida shakllangan agroiqlim, rel'ef va boshqa omillarga bog'liq. Jumladan, sug'orma va lalmikor dehqonchilik olib boriladigan hududlarda yetishtirilgan donli ekinlarning somoni va ulardan bo'shagan yerlarni chorvachilik maqsadida foydalaniladi. Ushbu hududda ozuqa ekinlari ham yetishtiriladi. Ozuqa ekinlari yem-xashak bazasini yaratibgina qolmasdan, almashlab ekishni amalga oshirishga zamin yaratadi. Sug'oriladigan yerlar sut-go'sht qoramolchiligi, cho'chqachilik, parandachilik, cho'l va tog' oldi yoylovlari qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik va tuyochilik uchun qulay hisoblanadi.

Respublikaning tabiiy sharoiti va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'sirida yirik va mayda shoxli qoramolchilik, qorako'lchilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichilik rivoj topgan.

Qoramolchilik chorvachilikning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. U sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan. Chorvachilikning mazkur tarmog'i aholining sut va sut mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining asosiy qismini ta'minlaydi.

O'zbekistonda 2022-yil jami 13853,5 ming bosh yirik shoxli qoramollar boqilgan. Taqqoslash uchun: 2015-yilda 12814,1, 2020-yilda 13154,3 ming boshni tashkil qilgan (12-jadval).

12-jadval

O'zbekistonda chorva mollari bosh sonining o'sish dinamikasi, ming bosh

	2015	2018	2020	2021	2022
Yirik shoxli qoramollar	11641,3	12814,1	13154,3	13544,4	13853,5
shundan sigirlar	4173,5	4626,0	4729,4	4863,2	4956,5
Qo'y va echkilar	19118,8	21580,5	22458,8	22970,3	23602,5
Otlar	216,9	242,5	253,6	260,4	269,0
Cho'chqalar	87,8	58,8	52,4	49,5	45,2
Parrandalar	61349,2	86374,8	89589,7	91935,0	97351,5

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019) va 2019-2022 (T.: 2023) yillar statistik to'plamlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi vaqtda yirik shoxli qoramollar soni bo'yicha birinchi o'rinda Samarqand (1693,6 ming), keyingi o'rinlarda Qashqadaryo (1687,7 ming), Buxoro (1328,2), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1208,2), Andijon (1130,1 ming), Farg'ona (1074,5) viloyatlari turadi. Boshqa viloyatlarda yirik shoxli qoramollar bosh soni bir millionga yetmagan.

Respublikada 2022-yilda 2725,9 ming tonna go'sht (tirik vaznda) 11627,2 ming tonna sut yetishtirilgan. 2015-yilga nisbatan mos ravishda 692,5 va 2599,4 ming tonnaga ko'paygan (13-jadval). Go'sht yetishtirishda Qashqadaryo (315,4 ming t), Samarqand (314,7 ming t) sut yetishtirishda

13-jadval

O'zbekistonda chorcavchilik mahsulotlarini yetishtirish dinamikasi, ming tonna

Mahsulot turlari	2015	2018	2020	2021	2022
Go'sht, tirik vaznda	2033,4	2430,5	2519,6	2635,1	2725,9
Sut	9027,8	10466,4	10976,9	11274,2	11627,2
Tuxum, mln. Dona	5535,4	7459,3	7781,2	7788,4	8129,2
Jun yetishtirish, tonna	36029	34606	35422	36345	37307
Qoraqo'l teri, dona	1031997	1085224	1152149	1252412	1287614
Pilla, tonna	26293,0	17912,3	20941,9	22769,9	24300,2

Jadval O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 (T.: 2019) va 2019-2022 (T.: 2023) yillar statistik to'plamlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Samarqand (1371,2 ming t), Qashqadaryo (1277,0 ming t), Farg'ona (1104,3 ming t), Xorazm (1098,5 ming t), Buxoro (1051,8 ming t) va Andijon (1040,2 ming t) viloyatlari alohida ajralib turadi. Boshqa barcha ma'muriy-hududlarda sut yetishtirish 1 mln. tonnaga yetmagan.

Tahlillar bo'yicha 2015-2022-yillarda qo'y va echkilar 4483,7, yilqilar 52,1, parrandalar 36002,3 ming boshga ko'paygan bo'lsa, cho'chqalar bosh soni kamaygan. Cho'chqalar bosh sonining kamayishini shariyat bo'yicha mahalliy aholining cho'chqa go'shtini kam iste'mol qilishi va cho'chqa go'shtining asosiy qismini iste'mol qiluvchi rusiyzabon aholining ko'chib ketayotganligi bilan izohlanadi. Ushbu yillarda tuxum 2593,8 mln. donaga, jun 1278,0 va qoraqo'l teri yetishtirish 255617 donaga oshgan. Pilla yetishtirish 1992,8 tonnaga kamaygan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillardan quyidagicha xulosa qilish mumkinki:

- YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayish tendensiyasiga ega. Bu mamlakat iqtisodiyotining agrar-industrial shakldan industrial-agrar yo'nalishga o'tishi bilan izohlanadi. Bu jarayon respublikada qishloq xo'jaligi va mineral xomashyo resurslarini qayta ishlashga tobora jiddiy e'tibor berilayotganidan dalolat bermoqda;

- tahlillardan ma'lum bo'ldiki, 2015-2022-yillarda qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning o'sishi sur'atlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarga nisbatan past bo'lgan. Mazkur holat sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi bilan izohlanadi;

- o'rganishlarning ko'rsatishicha ma'muriy-hududiy birliklar YaIM tarkibida qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoq ekanligi aniqlandi (bundan Toshkent, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mustasno). Buning asosiy sababi mintaqalarda qishloq xo'jalik mahsulotlari to'liq qayta ishlanmayotganligidan dalolat bermoqda;

- aholini uzluksiz oziq-ovqat xavfsizligi bilan ta'minlash maqsadida asta sekin qishloq xo'jaligi ekin tarkibida kartoshka, poliz va meva ekin maydonlari ko'payishiga qaramasdan qishloq xo'jaligida paxtachilik va g'allachilik asosiy tarmoqlar bo'lib qolmoqda;

- qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish mintaqalar bo'yicha keskin farqlar mavjud. Mintaqalarda mavjud qishloq xo'jaligi ekin yerlaridan foydalanish darajasining pastligi ushbu holatning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida salbiy ko'rsatkichga ega.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni yumshatish uchun bizning fikrimizcha agrar sohada quydagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- qishloq xo'jaligida faoliyot ko'rsatayotgan iqtisodiy sub'ektlarga dotatsiya, subvensiya va imtiyozli kreditlar berish, ulardan olinadigan soliqlar miqdorini kamaytirish, ular faoliyatini yanada erkinlashtirish ya'ni bozor iqtisodiyoti tamoyillarini amaliyotga keng jalb qilish;

- hozirgi kunda fermer xo'jaliklari tomonidan amalga oshirib bo'lmaydigan sho'rlanishga qarshi kollektor-drenaj va sug'orish inshootlarini takomillashtirib borishni, suv resurslarini mamlakat ichkarisida va Markaziy Osiya mintaqasida to'g'ri taqsimlashni davlat o'z zimmasiga olish;

- mamlakatda ishlab chiqarilmayotgan qishloq xo'jaligi uchun zarur texnika va boshqa vositalarni olib kelishda va mahsulotlarni eksport qilishda bojxona imtiyozlar bilan rag'batlantirish chora-tadbirlarini yanada yengillashtirishni amalga oshirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик, Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз: Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. // Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

2. Асанов Г., Набихонов И., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий географияси. Т.: Ўқитувчи. 1994.

3. Мамajanov M. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: 2019. 152 b.

4. Пугач И., Юсупов Ю., Бердиназаров З. Сельскохозяйственная политика в производстве сельскохозяйственных культур в Узбекистане. <http://www.iamo.de>

5. Рўзиев А. Абирқулов Қ. Ўзбекистон иқтисодий географияси. Т.: Шарқ. 2001. 142. б.

6. Солиев А. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси). Т.: 2014. 404 б.

7. O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-2018 statistik to'plam. T.: 2019. 239 b.

8. O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2019-2022 statistik to'plam. T.: 2023. 288 b.

9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2006. 12-жилд.

10. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги кадастр агентлигининг давлат кадастрлари палатаси. Ўзбекистон Республикасининг ер фонди. Т.: 2023. 210 б.

11. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi. II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T.: Yangi Chirchiq prints. 2024. 384 b.